

MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA O'QITISH ORQALI GEOGRAFIYA O'QITUVCHISINING KASBIY

KOMPETENTLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Urinova Nilufar Saydirasilovna, Chirchik davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrasi katta o'qituvchisi

WAYS TO IMPROVE THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF A GEOGRAPHY TEACHER THROUGH TRAINING BASED ON MODULAR EDUCATIONAL TECHNOLOGY

Urinova Nilufar Saydirasilovna, Senior Lecturer, Department of "Geography", Chirchik State Pedagogical University

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ ГЕОГРАФИИ ПОСРЕДСТВОМ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ МОДУЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ

Уринова Нилюфар Сайдирасиловна, старший преподаватель кафедры "География" Чирчикского государственного педагогического университета

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya fanini o'qitishda modulli texnologiyaning o'qituvchi kompetentligini oshirishdagi roli yoritilgan. Modulli yondashuv orqali o'qituvchi nafaqat o'quvchilarda mustaqil fikr lash, tahlil qilish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, balki o'zining kasbiy, texnologik, metodik va reflektiv kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. GIS, elektron xaritalar va boshqa AKT vositalaridan foydalanish o'qituvchining axborot-kommunikatsiya savodxonligini oshiradi. Shuningdek, modul asosidagi topshiriqlar, keyslar, loyihalar, hamda o'z-o'zini baholash elementlari orqali ta'lif sifati va o'qituvchi salohiyati yuksaladi. Maqolada zamonaviy ta'linda modulli texnologiyaning dolzarbliji va geografiya o'qituvchisi uchun uning amaliy ahamiyati ilmiy-nazariy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: modulli texnologiya, geografiya ta'limi, kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'qituvchining kasbiy rivoji, refleksiya, keys-metod, metodik tayyorgarlik.

Abstract: This article highlights the role of modular technology in teaching geography in increasing teacher competence. Through a modular approach, the teacher will have the opportunity not only to form independent thinking, analysis and practical skills in students, but also to develop his own professional, technological, methodological and reflective competencies. The use of GIS, electronic maps and other ICT tools increases the teacher's information and communication literacy. Also, the quality of education and teacher potential are improved through modular assignments, cases, projects, and self-assessment elements. The article analyzes the relevance of modular technology in modern education and its practical significance for a geography teacher on a scientific and theoretical basis.

Keywords: modular technology, geography education, competence, information and communication technologies, teacher professional development, reflection, case method, methodological preparation.



<https://orcid.org/0009-0009-7841-3271>
e-mail:
n.urinova@chspu.uz



Аннотация: В данной статье освещается роль модульной технологии в преподавании географии в повышении компетентности учителя. Благодаря модульному подходу учитель получит возможность не только формировать самостоятельное мышление, анализ и практические навыки у учащихся, но и развивать собственные профессиональные, технологические, методические и рефлексивные компетенции. Использование ГИС, электронных карт и других средств ИКТ повышает информационную и коммуникационную грамотность учителя. Также качество образования и потенциал учителя повышаются за счет модульных заданий, кейсов, проектов и элементов самооценки. В статье на научно-теоретической основе анализируется актуальность модульной технологии в современном образовании и ее практическая значимость для учителя географии.

Ключевые слова: модульная технология, географическое образование, компетентность, информационно-коммуникационные технологии, профессиональное развитие учителя, рефлексия, кейс-метод, методическая подготовка.

KIRISH. Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish eng muhim omillardan biri sanaladi. Ayniqsa, geografiya fanining mazmunan murakkab va integrativ xususiyati o‘qituvchidan metodik jihatdan puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, modul asosida o‘qitish texnologiyasi geografiya fani o‘qituvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Geografiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u pedagogning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va shaxsiy fazilatlari uyg‘unligiga tayanadi. Zamonaviy ta’lim sharoitida bu kompetentligini belgilovchi asosiy omillar qatoriga metodik, pedagogik-psixologik, axborot-kommunikatsion hamda fanlararo integratsion yondashuvlar kiradi.

Shu bilan birga, pedagogik-psixologik kompetentlik o‘quvchilarning yoshi, individual xususiyatlari, o‘quv motivatsiyasi kabi jihatlarni chuqur tahlil qilish va ularga mos yondashuvni qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, fanlararo integratsion kompetentlikning ahamiyati ortib bormoqda. Geografiya mazmunan boshqa fanlar — tarix, biologiya, iqtisodiyot va ekologiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, o‘qituvchi bu aloqalarni to‘g‘ri aniqlay olishi va o‘quvchilarga integrativ tafakkur asosida taqdim eta olishi kerak. Ushbu kompetensiyalar uyg‘unligi o‘qituvchining kasbiy salohiyatini belgilab beradi hamda o‘quvchilarda mustahkam va amaliy bilimlar shakllanishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA. Modul asosida o‘qitish texnologiyasining geografiya fanida qo‘llanilishi

bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ushbu yo‘nalish hali ham o‘zining to‘liq ilmiy asosini topgan, chuqur tadqiq etilgan soha deb bo‘lmaydi. Xususan, umumiyligi pedagogika va didaktika doirasida modul asosidagi ta’lim metodikasi ustida G.Yoqubov, R.Komilov, Z.Yuldasheva, T.Qodirova singari olimlar tomonidan asosiy nazariy g‘oyalar ilgari surilgan bo‘lsada, bu yondashuvning aynan geografiya fanidagi o‘ziga xos jihatlari alohida ilmiy tadqiqot sifatida yetarlicha yoritilmagan.

Bugungi global ta’lim jarayonida modul asosida o‘qitish texnologiyasi ko‘plab rivojlangan mamlakatlar tajribasida muvaffaqiyatli tatbiq etib kelmoqda. Bu yondashuvning afzalliklari sifatida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, muloqot va amaliy faoliyatga tayyorlik kabi ko‘nikmalarining shakllanishi e’tirof etiladi. Xususan, Singapur ta’lim tizimida modulli ta’lim texnologiyasi keng qo‘llaniladi va bu yondashuv ta’lim jarayonining markazida turadi. Ushbu tizim o‘quvchilarga o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga qarab modullarni tanlash imkonini berib, individual yondashuvni ta’minlaydi. Modulli ta’lim Singapurda raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshiriladi, masofaviy va aralash o‘qitish shakllari keng joriy qilingan. Finlyandiya ta’lim tizimida modul asosida o‘qitish integratsiyalashgan fanlararo yondashuv bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, geografiya kabi fanlar muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan loyihibor orqali o‘rgatiladi. Germaniya, Kanada va Janubiy Koreya tajribasida esa modulli o‘qitish darslarning chuqurroq o‘zlashtirilishi, o‘qituvchining mustaqil metodik faoliyat yuritishiga qulay sharoit yaratishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qaror va

farmonlari asosida, kasbiy ta'limda kompetensiyaga asoslangan va modulli dasturlar ishlab chiqilmoqda.

TADQIQOT MUHOKAMASI VA NATIJALARI. Modulli o'qitish – bu o'quv dasturining ma'lum qismini mustaqil o'zlashtirishga mo'ljallangan didaktik birliklar (modullar) asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonidir[2,92].

Har bir modul aniq maqsadga yo'naltirilgan, mustaqil o'rganishga qulay, baholash mezonlariga ega yakuniy nazoratni o'z ichiga oladi.

Geografiyada bu texnologiya mavzularini tizimli tahlil qilish, xaritalar bilan ishlash, mintaqaviy tahlillar va statistik malakalarni mustahkamlash imkonini beradi

Modulli o'qitish texnologiyasi geografiya o'qituvchisi kompetentligini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmdir. Darslarni modul asosida tashkil qilish o'qituvchining nafaqat metodik tayyorgarligini, balki tahliliy, axborot-kommunikatsion va ijodiy salohiyatini ham rivojlantiradi[6,67].

Modulli texnologiya orqali geografiya o'qituvchisining kompetentligini oshirish yo'llari:

1. Modul mazmunini kompetensiyaga yo'naltirish;
2. Amaliy va interaktiv topshiriqlarni kiritish;
3. Mustaqil o'rganishga yo'naltirish;
4. Metodik ta'minot yaratish;
5. Baholash tizimini kompetensiyaga asoslash;
6. Modul doirasida refleksiya va tahlilni tashkil etish;
7. Innovatsion metodlar integratsiyasi;
8. Hududiy va iqlimi xususiyatlarni hisobga olgan modullar.

Hozirgi zamon ta'limida o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Xususan, geografiya fanida bu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun modulli texnologiyadan foydalanish samarali yondashuv hisoblanadi. Modulli o'qitish texnologiyasi – o'qituvchi va o'quvchini faol o'quv jarayoniga jalb etishga, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga, hamda amaliy ko'nikma va reflektiv fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi[1,70].

Geografiya fani o'z tabiatiga ko'ra amaliyatga yaqin, tahlilga boy, turli interaktiv vositalardan foydalanishni talab qiluvchi fan hisoblanadi. Shu bois, modulli texnologiya axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan (GIS, elektron xaritalar, masofaviy o'rganish tizimlari) foydalanish orqali o'qituvchining texnologik va axborot kompetensiyasi rivojlanadi. Shuningdek, modul tarkibiga kiritiladigan real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, keyslar, loyiha asosidagi o'qitish uslublari o'qituvchining muammoni aniqlash, yechim topish, mustaqil fikrlash, va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Modul asosida bilim berish o'qituvchining metodik tayyorgarligini ham kuchaytiradi. Har bir modul tarkibiga kiritilgan didaktik materiallar, interaktiv metodlar, baholash vositalari o'qituvchining darslarni zamonaviy va sifatli tashkil etish salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, modulli texnologiyada o'z-o'zini tahlil qilish (refleksiya) elementlari mavjud bo'lib, bu o'qituvchining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega [5,45].

Modullarda muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish o'qituvchining kasbiy tafakkurini rivojlantiradi. Kundalik hayotda yechim izlashni talab qiladigan topshiriqlar o'qituvchini mustaqil fikr yuritishga, chuqur tahlil qilishga va turli pedagogik yondashuvlar o'rtaida samarali tanlov qilishga o'rgatadi.

Shuningdek, modullar doirasida refleksiya va o'z-o'zini baholash elementlarini joriy etish orqali o'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa uning reflektiv kompetentligini shakllantirib, pedagogik jarayonda doimiy o'sish va takomillashuvga yo'naltiradi[3,56].

Modul asosida o'tiladigan darslarda axborot-kommunikatsion texnologiyalar, xususan GIS dasturlari, interaktiv xaritalar, onlayn test platformalari, vizualizatsiya vositalaridan foydalanish orqali o'qituvchining raqamli savodxonligi oshadi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchining AKT kompetentligini mustahkamlab, zamonaviy darsni samarali rejalashtirishga xizmat qiladi [4,33].

Umuman olganda, modulli texnologiya orqali geografiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni izchil va tizimli yondashuvni talab etadi. Mazkur yondashuv o'qituvchini faqat dars beruvchi emas, balki ta'limiy jarayonni boshqaruvchi, tahlil qiluvchi va

yangilikka yo'naltiruvchi pedagog sifatida shakllantiradi.

XULOSA. Modul asosida o'qitish geografiya fani o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy va samarali yondashuv sifatida e'tirof etiladi. Bu texnologiya nafaqat dars mazmunining tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishini, balki o'qituvchining metodik, reflektiv, AKT, kommunikativ va integratsion kompetensiyalarining shakllanishi va mustahkamlanishini ham ta'minlaydi. Ayniqsa, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat va refleksiv tahlil kabi yondashuvlar o'qituvchiga o'z ustida izchil ishlash, dars jarayonini tahlil qilish va yangilikka intilishga keng imkoniyat yaratadi.

Bugungi ta'linda o'qituvchi shunchaki bilim beruvchi emas, balki o'quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantiruvchi, o'zini muntazam yangilab boruvchi, tahliliy va innovatsion fikr yurituvchi shaxs bo'lishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, modul asosida o'qitish texnologiyasi geografiya o'qituvchisining kasbiy salohiyatini oshirish, pedagogik jarayonga yangicha yondashuv kiritish va zamonaviy ta'lim talablariga moslashishda muhim o'rinnegallaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Azizzxo'jayeva, N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: O'zbekiston

yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006-y, 70-b.

2. Azizzxo'jayev, A.A. *Pedagogik texnologiyalar asoslari* (2-nashr). Toshkent: TDPU. 2020-y. 92-bet.
3. Karimova, D.M. Modulli o'qitish texnologiyasining zamonaviy ta'limdagи ahamiyati. *Ta'lim va Innovatsion Tadqiqotlar*, 2022-y. 56-bet.
4. Xudoyberganov, Q.X. Geografiya ta'limida AKT vositalarining o'rni. *Geografik axborotnoma*, 2021-y, 33-bet.
5. Jonbekova, M.K. Reflektiv ta'lim: O'qituvchining kasbiy o'sishida yangi yondashuvlar. *O'zbekiston pedagogik jurnali*, 2023-y, 45-b.
6. Yo'ldoshev, Q.Q., Tursunov, B.B. *Axborot texnologiyalari va ularning ta'lim jarayoniga integratsiyasi*. Toshkent: Fan. 2021-y, 67-bet.
7. Уринова, Н. (2023). Методика формирования географического профессионального компетентность студентов. *Предпринимательства и педагогика*, 2(2), 162-166.
8. Saidirasilovna, U.N. (2025). Preparing Future Geography Teachers Through Problem-Based Learning Technology: A Short Review. *ASEAN Journal for Science Education*, 4(1), 39-44.

